


BIZNES KAYFIYATI SHARHI (2026-YIL II CHORAK)

Qisqa tavsif

Iyul 2026

2026-YIL II CHORAGI BIZNES KAYFIYATI TAVSIFI

2026-yilning II choragida O'zbekiston bo'yicha biznes kayfiyati ijobiy dinamika bilan davom etdi. Hududlarda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra so'rovda jami 2 391 nafar tadbirkor ishtirok etib, tadbirkorlarning iqtisodiy faollik, biznes muhiti va bandlik bo'yicha baholari ijobiy va barqaror shakllanayotganini ko'rsatdi. So'rovda ishtirok etgan tadbirkorlarning 64 foizi joriy biznes shart-sharoitlarini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholadi (2025-yil II chorakda 61 foiz). Bu ko'rsatkichning so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada shakllanayotgani tadbirkorlar ishonchi barqaror saqlanayotganini anglatadi.



Biznes muhitining yaxshilanish darajasi



Tadbirkorlar biznes muhitidagi eng muhim ijobiy o'zgarishlar sifatida bank xizmatlari sifati va raqobat muhiti yaxshilangani, litsenziya olish jarayonlari soddalashgani hamda yo'llar infratuzilmasi biroz yaxshilanganini qayd etishdi. Shu bilan birga, monopollashuv darajasi, ma'muriy aralashuvlar, energiya ta'minoti va bojxona tariflari bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi ta'kidlandi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanishi II chorakning asosiy xususiyatlaridan biri bo'ldi. Yonilg'i sarfi, yuk tashish hajmlari, ishlab chiqarish hamda buyurtma hajmlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi yuqori saqlanib qoldi. Xususan, buyurtmalar ko'payganini bildirganlar ulushi 56 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida nisbatan yuqori darajada qayd etilib, mazkur ijobiy dinamikaga qurilish, turizm, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik hamda ishlab chiqarish tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Nisbatan yuqori quvvatlarda faoliyat olib borayotgan korxonalar ulushi o'tgan yilning mos davridagi 50 foizdan 58 foizgacha oshdi. Bunda, Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi yuqori quvvatlarda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida ushbu ko'rsatkich nisbatan pastroq shakllandi. Energiya ta'minotidagi uzilishlar, ichki talabning yetarli emasligi, avtomobillar uchun yonilg'i narxlarining qimmatlashishi hamda yetkazib berishdagi uzilishlar to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

Mehnat bozorida faollik barqaror darajada saqlanib, aksariyat korxonalarda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab ortgani qayd etildi. II chorakda ishchi kuchiga talabi oshganini bildirgan tadbirkorlik subyektlari ulushi 48 foizga yetdi. Kelgusi choraklarda Xorazm, Samarqand, Jizzax hamda Sirdaryo viloyatlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning yuqori darajada ortishi kutilmoqda, bu ko'rsatkich ishlab chiqarish, qurilish, turizm hamda moliya sohalarida boshqa sohalarga nisbatan yuqori shakllanishi kutilmoqda.

Moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha so'nggi uch oy davomida qarz majburiyatlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi 42 foizni tashkil etdi. Qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalarda o'suvchi tendensiyalar saqlanib qolmoqda - respondentlarning 45 foizi kelgusida qarz majburiyatlari oshishini kutmoqda. Navoiy, Qashqadaryo, Andijon va Jizzax viloyatlarida kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoj sezilarli oshishi kutilayotgan bo'lsa, Farg'ona, Toshkent hamda Buxoro viloyatlarida ehtiyoj pasayishi yoki o'zgarishsiz qolishi kutilmoqda. Bunda, qurilish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm va umumiy ovqatlanish sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan kelgusida kredit mablag'lariga nisbatan yuqori ehtiyoj mavjudligi bildirildi.


Umuman olganda, tadbirkorlarning 82 foizi (2025-yil II chorakda 66 foiz) kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoitlar yaxshilanishiga ishonch bildirgan. Bu ko'rsatkich tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ishonchning yuqori darajada saqlanayotganidan darak beradi.

HUDUDLAR KESIMIDA XULOSALAR


TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respondentlarning 53 foizi biznes shart-sharoitlarini yaxshilangan deb baholadi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan biroz oshdi. Qurilish, tashish, ishlab chiqarish va savdo sohalarida biznes muhiti sezilarli yaxshilangan. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti hamda litsenziya olish yo'nalishlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmining oshganini qayd etganlar ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan mos ravishda 4 va 7 foiz bandga yuqori shakllandi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 43 foizdan 61 foizga yetdi. Qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganini bildirganlar ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz yuqoriladi. Kelgusi uch yilda tadbirkorlarning 82 foizi iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi,
respondentlar ulushi, foizda




Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARI

Mazkur hududlarda tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar sezilarli kuchayib, tadbirkorlik subyektlarining 69 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi - bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 8 foiz bandga oshdi. Ijobiy o'zgarishlar umumiy ovqatlanish, turizm, moliya va qishloq xo'jaligi sohalarida sezilarli bo'ldi. Bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari, litsenziya olish hamda raqobat muhitidagi ijobiy o'zgarishlar asosiy omillar sifatida qayd etildi. Yonilg'i va energiya iste'moli oshganini bildirgan subyektlar ulushi 20 foiz bandga, buyurtmalar hajmi oshganini bildirgan subyektlar ulushi esa 13 foiz bandga ko'payib, 64 foizni tashkil etdi. Yuqori quvvatda ishlayotgan korxonalar ulushi 54 foizni tashkil etdi. Kelgusi uch yilda iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan tadbirkorlar ulushi 84 foizni tashkil qildi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi respondentlar ulushi, foizda




Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda




ANDIJON, NAMANGAN VA FARG'ONA (FARG'ONA VODIYSI)

Farg'ona vodiysida so'rovda ishtirok etgan biznes subyektlarining 66 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini bildirdi (2025-yil II chorakda 70 foiz). Hunarmandchilik, ta'lim va moliya sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi sezilarli darajada kamaydi. Shunga qaramay, bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti hamda litsenziya olish yo'nalishlaridagi holat ijobiy baholandi. Buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilga nisbatan biroz kamaydi, qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganini bildirganlar ulushi esa 14 foiz bandga pasaydi. Shu bilan birga, yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 57 foizdan 70 foizga oshdi. Kelgusi uch yilda tadbirkorlarning 81 foizi iqtisodiyot va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda




Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda




QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI

Mazkur hududlarda biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini ta'kidlagan tadbirkorlik subyektlarining ulushi 61 foizni tashkil etdi. Turizm, moliya, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida biznes muhiti yaxshilanganligini bildirgan respondentlar ulushi sezilarli ko'paygan. Kredit olish imkoniyatlari, bank xizmatlari sifati, raqobat muhiti hamda litsenziya olish jarayonlarining yaxshilanishi asosiy omillar bo'ldi. Tadbirkorlik subyektlarining deyarli yarmi ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmi oshganini qayd etishdi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 48 foizdan 58 foizga, 10 foiz bandga oshdi. Ushbu hududda biznes subyektlarining 84 foizi (2025-yil II chorakda 73 foiz) kelgusi uch yilda iqtisodiyot va biznes muhitida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonch bildirdi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda




Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARI

Bu hududlarda tadbirkorlik subyektlarining 66 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 4 foiz bandga oshdi. Hunarmandchilik, aloqa va axborot hamda turizm sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etganlar ulushi sezilarli oshdi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti va yo'llar infratuzilmasi yaxshilangani eng muhim ijobiy omillar bo'ldi. Buyurtmalar hajmi, yonilg'i va energiya iste'moli hamda ishlab chiqarish hajmlari oshganini bildirgan respondentlar ulushi 7–8 foiz bandga yuqori shakllandi. Qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganini bildirgan respondentlar ulushi 11 foiz bandga ko'payib, 56 foizga yetdi. Tadbirkorlarning 80 foizi kelgusi uch yilda iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 16 foiz bandga oshdi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, o'zgarishi, respondent ulushi, foizda




Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA XORAZM VILOYATI

Mazkur hududlarda so'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 65 foizi biznes yuritish shart-sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga oshdi. Qurilish, tibbiyot, moliya va qishloq xo'jaligi sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini bildirganlar ulushi sezilarli darajada ko'paydi. Bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari, shuningdek raqobat muhiti hamda litsenziya olish bo'yicha ijobiy o'zgarishlar asosiy omillar sifatida qayd etildi. Yonilg'i va energiya iste'moli, buyurtmalar hajmi hamda ishlab chiqarish hajmlari oshganini bildirgan respondentlar ulushi mos ravishda 6, 4 va 7 foiz bandga yuqori shakllandi. So'rovda qatnashgan biznes vakillarining 81 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



To'liq sharh bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin: